

МУАЛЛИМ ХАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҲ



Илимий-методикалық журнал

2023

1/3-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоғарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

Нөкис

МАЗМУНЫ

ТИЛ ХАМ ЭДЕБИЯТ

Айтбаев Д. Т. Асимметрик дуализм коммуникациянинг семиотик тамойили сифатида	6
Yuldasheva Sh. Sh. Ta'limni raqamlashtirish sharoitida o'zbek tilini qardosh tillardagi guruhlarda o'qitishning o'ziga xosliklari va tajribalar	13
Arifjanova O. Q. Ingliz tilini o'qitishdagi yangi texnikalar: o'qish(reading) va eshitib tushunish(listening) misolida	20
Неъматова С. Глубокие корни развития литератур	25
Мирзорохимов О. К. Для чего предназначен словарь	33

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Yusupova M. A., Baxtiyorova S. E. Pedagog tarjimonlarni tayyorlash zaruriyati	40
Jabborova O. M., Baxtiyorova S. E. Bo'lajak ingliz tili pedagoglarini xalqaro ta'lim dasturlari bilan tanishtirish yo'nalishlari	44
Narimbetova Z. A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida o'quvchilarning geometrik kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	48
Umarova Z. A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik konfliktlarning turlari	52
Umarova Z. A., Nazirjonova M. B. Umumta'lim maktablari o'quvchilarida uchraydigan psixologik xarakterdagi pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning amaliy shakllari	60
Xusnetdinov U. I. Qoraqalpog'iston Respublikasi talaba yoshlarida ekologik madaniyatni shakllantirish g'oyasining rivojlantirish yo'llari	64
Qarshiboyeva X. K. TALIS xalqaro baholash dasturining ahamiyati va afzalliklari	72
Beketov N. A. Umumta'lim maktablarida tarbiyaviy ishlarni boshqarish	78
Beketov N. A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining tarbiya funksiyalari	84
Quzmanova G. B., Davlatova M. A. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda TIMSS hamda PISA xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish metodikasi	95
Kuchkinov A. Yu., Tilovova S. B. EKO-STEAM ta'lim kompetensiyalarni rivojlantirishda fanlararo yondashuv	100
Qorajonova B. T. Maktablarda psixologik maslahat tashkil etishning samarali shakl va uslublari	110
Абдурахмонова У. Н. Педагогик фаолиятда инновациялардан самарали фойдаланишни ташkil этиш йўллари	117
Turayeva G. E. Pedagogik jarayonni tashkil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyat va afzalliklari	121
Xurramova M. A. Ta'lim mazmunini shakllantirishda germeneytik yondashuv imkoniyatlari	126
Achilov T. S. Vatanparvarlik tarbiyasi – maktab o'quvchilarining qiymat-semantik kompetentsiyasini shakllantirishning muhim elementi sifatida	134
Abdusalilova D. Madaniyatlararo muloqot yo'nalishida «ijtimoiy-madaniy kompetentlik» tushunchasi	141
Мусурманкулова М. Н. Изучение сопоставительно-диаектологической компетенции в современной педагогике	146
Шамиева О. Р. Роль дисфункциональных родителей в эмоциональном благополучии ребёнка	152
Ochilov E. Yu. Role of ai-powered chatbots in increasing efficiency of learning processes	156



BO‘LAJAK INGLIZ TILI PEDAGOGLARINI XALQARO TA‘LIM DASTURLARI BILAN TANISHTIRISH YO‘NALISHLARI

Jabborova O. M.

(PhD)

Baxtiyorova S. E.

CHDPU talabasi

Tayanch so‘zlar: ingliz tili, pedagog, xalqaro, ta‘lim, dastur, yo‘nalish, o‘qitish, bilim, ko‘nikma.

Ключевые слова: английский язык, педагог, международные, образования, программа, направление, обучение, знание, навыка.

Key words: english, teacher, international, education, program, direction, training, knowledge, skill.

O‘zbekistonda *Ingliz tili* pedagoglarini tayyorlash bo‘yicha o‘ziga xos vazifalar belgilangan [1]. Bunda mazkur toifa pedagoglarini sifatli ta‘lim vositasida tayyorlash va ularni amaliy faoliyatga yo‘naltirishda yangicha texnologiyalarga asoslanish masalasiga e‘tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan Ingliz tili pedagoglarini oliy pedagogik ta‘lim jarayonida tayyorlashda ularni eng muhim xalqaro ta‘lim dasturlari bilan ham tanishtirish taqozo etilmoqda. Bu o‘rinda ana shu masalaning eng muhim jihatlariga e‘tiboringizni tortamiz.

Ingliz tili pedagoglari bugungi kunda mazkur til bo‘yicha eng muhim asoslar bilan qurollanmoqda. Ayni paytda, jamiyatimizning innovatsion rivojlanish jarayoni va mamlakatimizning xalqaro hamkorlik tendensiyalari mazkur toifa mutaxassislarining amaldagi xalqaro ta‘lim dasturlaridan ham xabardor bo‘lishi taqozo etilmoqda. Chunki butun dunyoda amal qilayotgan xalqaro ta‘lim dasturlarining asosiy ish tili Ingliz tili hisoblanadi. Bunday xalqaro ta‘lim dasturlarining eng muhimlariga e‘tibor bering:

1. EGMA xalqaro ta‘lim dasturi. Mazkur xalqaro ta‘lim dasturi YUNESKO tomonidan ingliz tilida amaliyotga joriy etilgan. Unda Amerika Qo‘shma Shtatlarining xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) bilan hamkorlikda tadqiqot ishlari amalga oshiriladi. EGMA xalqaro ta‘lim dasturi asosiy e‘tiborni boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning matematik savodxonligini rivojlantirish va baholashni nazarda tutadi. Shu sababli mamlakatimiz boshlang‘ich sinflarida ingliz tili o‘quv fani bo‘yicha o‘qitish jarayoni hisobga olinayotganligi nazarda



tutilib, oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari mazkur xalqaro dastur asoslari bilan tanishtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:

a) boshlang'ich sinf o'quvchilarini Matematika o'quv fani bo'yicha Ingliz tilidagi atamalar bilan tanishtirish;

b) boshlang'ich sinf o'quvchilarini xorijiy (ingliz) tilidagi matematik mashqlar bilan tanishtirish;

v) ushbu o'quv fani bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi lug'at boyligini tarkib toptirish.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak ingliz tili pedagoglarining bunday malakalarga ega bo'lishi o'quvchilarning matematik savodxonligi darajasini kengaytirishga asos bo'ladi. Chunki EGMA xalqaro ta'lim dasturi boshlang'ich sinf o'quvchilarining Matematika o'quv fani bo'yicha o'tkaziladigan xalqaro miqyosdagi fan olimpiadalari dasturlarining topshiriqlariga kiritilgan. Shu jihatdan bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining mazkur dastur bo'yicha malakaga ega bo'lishi bu boradagi muhim yutuqlarga erishish imkonini beradi.

2. EGRA xalqaro ta'lim dasturi. Mazkur xalqaro ta'lim dasturi ham AQSHning xalqaro taraqqiyot agentligi bilan hamkorlikda mamlakatlarning ta'lim tizimiga joriy qilib kelinmoqda. EGRA xalqaro ta'lim dasturi boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish va savodxonlik darajasini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini mazkur xalqaro dastur asoslari bilan tanishtirishda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

a) bo'lajak ingliz tili pedagoglarini o'quvchilarning ingliz tili matnini o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirish bilan qurollantirish;

b) mazkur toifa pedagoglarni boshlang'ich sinf Ingliz tili o'quv fani matnlari asosida o'quvchilarning fikrlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi bilan qurollantirish;

v) ushbu toifa pedagoglarning boshlang'ich sinf o'quvchilarini ingliz tilida matnlar tuzish va ularni tahlil qila olish ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash.

Diqqat qilinsa, EGMA xalqaro ta'lim dasturi boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tili o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va amaliy tayyorgarligi uchun muhim ahamiyatga ega. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak ingliz tili pedagoglarini ushbu xalqaro ta'lim dasturi asoslari bilan tanishtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. A-level xalqaro ta'lim dasturi. Mazkur xalqaro ta'lim dasturi YUNESKO tomonidan joriy etilgan bo'lib, unda asosiy e'tibor o'quvchilarning tanqidiy



fikrlash, ijodiylik, moslashuvchanlik va muloqot ko'nikmalarini yuksak darajada shakllantirishga qaratiladi. Bu xalqaro dasturni ta'lim tizimiga joriy etish bo'yicha mamlakatimiz Prezident maktablarida tajriba mavjudligini eslatib o'tish joiz [2]. Shu jihatdan oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak ingliz tili pedagoglarini ushbu xalqaro dastur asoslari bilan tanishtirishda quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:

a) bo'lajak ingliz tili pedagoglarini o'quvchilarda erkin fikrlar ko'nikmasini shakllantirish metodikasi bilan qurollantirish;

b) Ingliz tili o'quv fani mashg'ulotlarida o'quvchilarning mustaqil topshiriqlarini bajarish ko'nikmasini tarkib toptirish asoslari bilan qurollantirish;

v) ushbu toifa pedagoglarni o'quvchilarning ingliz tili bo'yicha o'zlashtirgan ko'nikmalaridan amaliy faoliyatda foydalanish olishga tayyorlash metodikasi bilan qurollantirish.

Bunday yondashuv ushbu xalqaro ta'lim dasturi bo'yicha bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lish imkonini beradi. Chunki kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar ingliz tili bo'yicha yetarli darajada bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgani holda, mazkur til asosida fikrlash, tahlil qilish hamda o'z ko'nikmalaridan amaliy foydalanishda murakkabliklarga duch kelmoqda. Shu jihatdan ushbu xalqaro dastur bo'yicha malakaga ega bo'lgan ingliz tili pedagoglari bu borada muhim amaliy ishlarni amalga oshirish imkoniyatlariga ega bo'ladi [3].

E'tibor berilsa, mamlakatimiz ta'lim tizimida, jumladan, boshlang'ich ta'limda turli xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish jarayoni kechmoqda. Bunda EGRA, EGMA va I-level xalqaro ta'lim dasturlari nisbatan yangi bo'lib, oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak ingliz tili pedagoglari tomonidan ularning o'zlashtirilishi taqozo etiladi. Ta'kidlash lozimki, bu xalqaro dasturlar mamlakatimiz pedagog kadrlariga tanish bo'lgan PISA, PIRLS va TIMES kabi xalqaro ta'lim dasturlaridan farqli ravishda o'quvchilarning o'zlashtirganlik darajasini baholamaydi, aksincha, ular o'quvchilarning matematik, o'qib tushunish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi. Shu jihatdan ushbu xalqaro dasturlar asoslari bo'yicha bo'lajak ingliz tili pedagoglariga malakalar berish dolzarb bo'lib turibdi.

Shunday qilib bugungi kunda bo'lajak ingliz tili pedagoglarini tayyorlash jarayonida ularni turli xil xalqaro ta'lim dasturlari bo'yicha malaka bilan qurollantirish nazariy, metodik va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining bu boradagi imkoniyatlari keng ekanligini eslatib o'tish joiz.



Adabiyotlar:

1. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. // www.ziynet.uz
2. Taraqqiyotning tamal toshi ilm-fan va ta'lim-tarbiyada. Bosh maqola. // "Yangi O'zbekiston" gazetasi. 2022-yil, 30 dekabr soni.
3. Baxtiyorova S.E. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorijiy tilni o'qitishning innovatsion metodikasi // // Maktabgacha va boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani, 2022-yil 18-noyabr, 339-341 b.

РЕЗЮМЕ

Maqolada oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak Ingliz tili pedagoglarini xalqaro ta'lim dasturlari bilan tanishtirish yo'nalishlari to'g'risida mulohaza yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье размышлено о обучении направление международные образовательные программы на педагогов английских язык и дано индивидуальные рекомендации по данному вопросу.

SUMMARY

The articles reflect on teaching the direction of international educational programs for English teachers and give individual recommendations on this issue.

